XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 7 - mart VI-55-42-11-155-K/24 Dang‘ara tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, ko‘cha nomlarni reestrga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, bugungi kunda tumanda 49 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud bo‘lib, 395 ta ko‘cha, shundan 316 ta ko‘cha Davlat reestirida bo‘lib, 79 ta ko‘cha Davlat reestridan o‘tmagan, 31 ta ko‘chaga tuman Kengashining qarori chiqarilishi hamda Geografik ob’ektlarga nom berish tuman komissiyasida ko‘rib chiqilib, to‘liq nomi va chegara hududlari belgilab olinishi zarur.

Farg‘ona viloyati hokimligi xuzuridagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2021 yil 4 maydagi 06-06/3663-sonli murojaatnomasi va unda qayd etilgan Dang‘ara tumani komissiyasining 117 ta geografik ob’ektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi Ekspert komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Ekspert komissiyasi quyidagi xulosaga keldi:

-Dang‘ara tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan jami 117 ta geografik ob’ektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifidan 31 ta ob’ektning nomi qonun hujjatlari talablariga muvofiq va 86 ta ob’ekt nomi qonun hujjatlari talablariga nomuvofiq deb topilganligi va “Geografik ob’ktlarning nomlarining o‘zbek tilida yozilishi” Qoidalari asosida normallashtirilgan 4 ta ob’ekt nomi bo‘yicha ekspert xulosasi olingan ko‘chalar to‘g‘risida tuman hokimining ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, Davlat tili to‘g‘risidagi qonun xujjatlariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha maslaxatchisi N.Umarovning axboroti eshitilib, bildirilgan fikr-muloxazalarga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Umarovning axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspert komissiyasining 2021 yil 1 iyun kungi 03-08-1324-sonli “Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi Ekspert xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Kadastr agentligi tuman bo‘limi tomonidan o‘rganish natijalariga ko‘ra, takrorlanib kelgan 117 ta geografik ob’ektdan, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun xujjatlari talablariga muvofiq 31 ta ob’ekt nomi, qonun hujjatlariga nomuvofiq deb topilgan 86 ta ob’ekt nomi bo‘yicha ekspert xulosasi olingan ko‘chalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (T.Salimov)ga: bir hafta muddatda tuman hududidagi yangidan nomlangan geografik ob’ektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Abdurasulov)ga nom berilgan hududlarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratish vazifasi yuklatilsin.

6. Kadastr agentligi Dang‘ara tuman bo‘limi (M.Isambayev)ga 10 (o‘n) kun muddatda Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori bilan o‘zgartirilgan geografik ob’ektlarining nomlarini davlat reestriga kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman Mahalla uyushmasi bo‘limi raisi (J.Jahonboyev)ga:

- bir hafta muddatda hududlarda nomlari o‘zgargan geografik ob’ektlarning nomini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalarga yozib o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (T.Salimov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Tojixakimov**

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman
Kengashining
2024-yil 7-martdagi
VI-55-42-11-155-K/24-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani bo‘yicha nomi Davlat reestri bazasida mavjud bo‘lmagan va reestrga kiritiladigan ko‘cha nomlari

RO'YXATI

№	Tuman	Ko‘cha joylashgan MFY	Geografik obekt nomi (ko‘cha)	Izoh	Geografik obyektning turi
1	Dang‘ara t	Oqtepa MFY	Qo‘rg‘oncha	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
2	Dang‘ara t	Tangriqul MFY	Bahor	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
3	Dang‘ara t	Yashik MFY	Birdamlik	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
4	Dang‘ara t	Taptiqsaroy MFY	Sog‘lom avlod	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
5	Dang‘ara t	Telimimg MFY	Sabo	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
6	Dang‘ara t	G‘alaba MFY	Sado	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
7	Dang‘ara t	Bo‘riqum MFY	Odillik	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
8	Dang‘ara t	Kichik turk MFY	Daryo	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
9	Dang‘ara t	Qiyali qo‘rg‘oncha MFY	Tashabbus	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
10	Dang‘ara t	Oqtepa MFY	Sarchashma	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
11	Dang‘ara t	Qora mulla MFY	Baxmal	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
12	Dang‘ara t	Qora korpa MFY	Parvoz	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
13	Dang‘ara t	Qiyali qorg‘oncha MFY	Shodiyona	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
14	Dang‘ara t	Soy shildir MFY	Samo	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
15	Dang‘ara t	Chinobod MFY	Yo'l bo'yi	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
16	Dang‘ara t	Navbahor MFY	Dang'ara	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
17	Dang‘ara t	Pishqaron MFY	Soy soxili	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
18	Dang‘ara t	Doimobod MFY	Doimobod	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
19	Dang‘ara t	Doimobod MFY	Ma’rifat	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
20	Dang‘ara t	Doimobod MFY	Xo'ja turobota	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
21	Dang‘ara t	Katta turk MFY	Yangi obod	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
22	Dang‘ara t	Qum qiyali MFY	Qum qiyali	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
23	Dang‘ara t	Taptiqsaroy MFY	Obod Ko'cha	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
24	Dang‘ara t	Tumor MFY	Tumor	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
25	Dang‘ara t	Urganji MFY	Urganji	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
26	Dang‘ara t	Arziktepa MFY	Arziktepa	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
27	Dang‘ara t	G‘alaba MFY	Xosil	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
28	Dang‘ara t	G‘alaba MFY	G'alaba	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
29	Dang‘ara t	Katta amirobod MFY	Katta amirobod	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
30	Dang‘ara t	Katta amirobodMFY	Kishnovich-ota	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha
31	Dang‘ara t	Qiyali MFY	Qaqir	*Bazada yo‘q (bazaga kiritilishi kerak)*	Ko‘cha